

“O’zgalar mulkini talon taroj qilishning kelib chiqish sabablari”

O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

313-guruh kursanti Muxsinbekov Akmal Jo’rabek o’g’li

O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

311-guruh kursanti Samatov Samatjon Kodir o’g’li

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqola orqali o’zgalar mulkini talon taroj qilish jinoyatini izohli tahililini, o’zgalar mulkini talon taroj qilish bilan bog’liq jinoyatlarni adabiyotlarda keltirilgan ta’riflarni, O’zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan jinoiy javobgarlikni, Mazkur jinoyatlarni fosh etishni kriminalistik va amaliy tahlillarini yoritib o’tgan.*

KALIT SO’ZLAR: *bosqinchilik, talon-taroj qilish, reket, munitsipal mulk, ommaviy mulk, plagiat, ichki idoraviy hamkorlik, issiq izidan fosh etish.*

АННОТАЦИЯ: В данной статье дан пояснительный анализ преступления грабежа чужого имущества, даны в литературе определения преступлений, связанных с грабежом чужого имущества, уголовная ответственность, предусмотренная в Уголовном кодексе Республики Узбекистан, уголовное расследование этих преступлений и освещен практический анализ.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *вторжение, грабеж, рэкет, муниципальная собственность, общественная собственность, плагиат, межведомственное сотрудничество, «горячий след».*

ANNOTATION: *Through this article, an explanatory analysis of the crime of robbery of property of others, definitions of crimes related to robbery of property of others given in the literature, criminal liability provided for in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, criminal investigation of these crimes and covered practical analysis.*

KEY WORDS: *invasion, robbery, racketeering, municipal property, public property, plagiarism, inter-departmental cooperation, hot trail exposure.*

O‘zbekiston Respublikasi eski tahrirdagi Konstitutsiyasining 53-moddasiga muvofiq mamlakat iqtisodiyotining negizini turli shakldagi mulk tashkil etadi. Mulk mutlaq daxlsiz hisoblanadi va davlat tomonidan qo‘riqlanadi, unga nisbatan har qanday tajovuz qonunga zid deb topiladi. Yangilanayotgan Konstitutsiyamizning 65moddasida fuqarolar farovonligini oshirishga qaratilgan O‘zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi deb belgilab qo‘yilmoqda. Mulk har bir shaxsning farovonligi oshiruvchi, uning iqtisodiy tayanchi hisoblandi. Unga tajovuz qilish jinoyat sifatda belgilanganligi, uning huquqiy himoyasi milliy qonunchiligidagi normalar bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan biz so‘z yuritayotgan O‘zgalar mulkini tovlamachilik yo‘li bilan egallahsga qaratilgan ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikning ayrim masalasi muhokama qilamiz. So‘nggi yillarda ushbu turdagи jinoyatlar ham oshib bormoqda. Tovlamachilik, talonchilik, bosqinchilik yo‘li bilan o‘zgalar mulkini egallah jinoyatning eng zaruriy belgilardan biri jabrlanuvchi qo‘rquv ostida, erki cheklangan tarzda mulkni aybdorga topshiradi. Ushbu jinoyatlarni ijtimoiy xavfliliги shundaki ayrim holatlarda jabrlanuvchi yillar davomida o‘zning erkiga qarshi ravish mulkini aybdorga o‘tkazib beradi. Aksariyat holatlarda ushbu qilmishda aybdor jazolanmay qolib ketishi mumkin. Jabrlanuvchi aybdorning talabalari sababli ushbu jinoyatlar haqida huquqni muhozafa qiluvchi organlarga xabar bermaydi,natijada aybdor jabrlanuvchidan mutassil ravishda o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib yuradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori¹ bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida alohida turdagи jinoyatlar uchun sanksiyalar qilmishlarning ijtimoiy xavflilik

xususiyati va darajasiga nomuvofiqligi, jumladan jazoning muqobil turlari, rag‘batlantiruvchi normalar va jamoat ta’sir choralar yetarli darajada qo‘llanilmasligi va samarasizligi kabi muammolar sabab o‘tilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

ma’lumotlariga ko‘ra[2] 2022 yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra iqtisodiyn 2018-yil 14-maydagi PQ-3723-son qarori jinoyatlar ichida tovlamachilik (0,8 %) o‘sgan, ya’ni 364 ta tashkil etgan.(2021-yil 354 ta, 2020-yilda 206 ta). Tovlamachilik jinoyatlarning 2022-yilida 4028 ta shaxslar tomonidan sodir etilgan bo‘lsa, ularning 284 tani voyaga yetmaganlar(14-17) shaxslar tashkil etadi. Raqamlardan ko‘rinib turibdiki tovlamachilik jinoyatlar asosan bir guruh shaxslar yoki jinoiy guruh bo‘lib sodir etilishi holatlari ko‘p uchramoqda. Shuningdek voyaga yetmagan shaxslar tomonidan tovlamachilik bilan bog‘liq jinoyatlar oshganini ko‘rishimiz mumkin. masalan, 2020-yilda 7 ta holat qayd etilgan bo‘lsa, 2022-yil jami 16 ta holatda jinoyatlar voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir etilgan.¹

Talon-toroj qilish —o‘zganining mulkini o‘zining yoki boshqa shaxslarning foydasi uchun, mulkdorga yoki ushbu mulkning boshqa egasiga zarar keltirib, qonunga xilof tarzda va haq to‘lamay olib qo‘yishdir. Talon-toroj qilish turdosh tushuncha bo‘lib, mulkka qarshi jinoyatlarning muayyan bir guruhini, ya’ni bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik, o‘zlashtirish yoki rastrata yo‘li bilan talon-toroj qilish, firibgarlik hamda o‘g‘rilikni o‘z ichiga qamrab oladi.Talon-toroj qilishning obyekti o‘zgalar mulkidir.

Mulk —mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish bo‘yicha mulk egasi va jamiyatning boshqa a’zolari (mulkdor bo‘limganlar) o‘rtasida yuzaga keladigan huquqiy munosabatdir. **Fuqarolik kodeksining 167-moddasiga** muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida mulkning **xususiy** va **ommaviy** shakllari mavjud.

¹ www.Stat.uz

Fuqarolar, xo‘jalik shirkatlari va jamiyatlari, kooperativlar, jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar va boshqa nodavlat shaxslar xususiy mulk huquqining subyektlari hisoblanadilar. **Ommaviy mulk**—bu Respublika mulki va ma’muriy-hududiy tuzilmalar mulkidan (munitsipal mulk) iborat bo‘lgan davlat mulkidir. Respublika mulkiga yer, yer osti boyliklari, suv, havo havzasi, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy boyliklar, respublika davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining mol-mulki, davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan madaniy va tarixiy boyliklar, respublika Budgetining mablag‘lari, oltin zaxirasi, davlatning valuta va boshqa fondlari, shuningdek, korxonalar va boshqa moddiy boylikka ega bo‘lgan komplekslar, o‘quv, ilmiy, ilmiy tadqiqot muassasalari va tashkilotlari, davlatning budget mablag‘lari va boshqa mablag‘lari hisobidan yaratilgan yoki sotib olingan intellektual faoliyat natijalari, boshqa mol-mulklar ham kiradi. **Munitsipal mulk²** tarkibida davlat hokimiyyati mahalliy organlarining mulki, mahalliy budget mablag‘lari, munitsipal uy-joy fondi va kommunal xo‘jalik, korxonalar va boshqa mulkiy komplekslar, xalq ta’limi, madaniyat, sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, boshqa mulklar bo‘ladi. Jinoyat kodeksining X bobida nazarda tutilgan «**O‘zgalar mulkini talon-toroj qilishning**» maxsus obyekti fuqarolik huquqining mulk huquqi instituti doirasiga kiruvchi shaxsning o‘z mulkiga egalik qilishi, undan foydalanishi va tasarruf etishi bilan bog‘liq mulkiy munosabatlar hisoblanadi. Mulkiy munosabatlar doirasiga, shuningdek, mol-mulkni qonunga muvofiq qo‘lga kiritish huquqini ham kiritish lozim. Talon-toroj qilishning predmeti mulk, ya’ni ko‘char va ko‘chmas mulk va mulkni olish huquqini beruvchi predmetlar, ya’ni inson mehnati singgan moddiy dunyo predmetlari, muayyan ashyolar,

² O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi electron manaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs-17451206443>.

shuningdek, uy hayvonlari bo‘lishi mumkin. Talon-toroj qilish predmeti³⁴ moddiy borliq predmeti singari aniq xususiyatlarga, belgilarga (og‘irligi, sifati, hajmi va hokazolarga) ega bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan elektr energiyasi, gaz kabilar talon-toroj qilish jinoyatlarining predmeti bo‘lishi mumkin emas. Biroq bunday harakatlar boshqa jinoyat tarkibini: elektr, issiqlik energiyasi, gaz, vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzish (JK 185²-moddasi) jinoyatini keltirib chiqarishda aybli bo‘lishi mumkin. Shuningdek, intellektual mehnatni o‘zlashtirish (plagiat) talon-toroj qilishning predmeti bo‘la olmaydi, bunday harakatlar mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish (JK 149-moddasi) jinoyati tarkibini tashkil qiladi⁵. Talon-toroj qilishning predmeti bo‘lib faqatgina inson mehnati singgan va ma’lum iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan mol-mulk, ashyolar hisoblanishi mumkin. Mol-mulkning qiymati deganda, odatda, uning pul bilan o‘lchangan narxi tushuniladi. Shuning uchun, pul, pul birliklari, muomala almashinuvi ekvivalenti bo‘lgan qimmatli qog‘ozlar talon-torojnинг predmeti bo‘lishi mumkin. Ma’lum bir qiymatga ega bo‘limgan narsalar, masalan, shaxsiy yozishmalar, shaxsiy kundalik, kimningdir fotosurati talon-toroj predmeti bo‘lishi mumkin emas. Bu yerda auksion savdosiga qo‘yilgan va oldi-sotdi qilish mumkin bo‘lgan mashhur shaxslarning rasmlari (ayniqsa, avtograf qo‘yilgan), shaxsiy kundaligi, xat yozishmalari istisnoetuvchi holatlardan biri sanaladi.⁶ Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tergov va sud amaliyoti materiallari asosida ko‘rilgan bo‘lib zarur tergov harakatlari va tezkor qidiruv tadbirlari o’tkazish xususiyati va izchilligini aniqlash bo‘yicha muayyan ko’rsatmalarni ishlab chiqilishini taqozo qiladi. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi tergov va sud amaliyoti materiallari

³ O‘zgalar mulkini o’g’rilik, talonchilk va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to’g’risida 30.04.1999 yildagi Oliy sud plenum qarori Manba Lex.uz sayti:<https://lex.uz/docs/-14486442>

⁴ O‘zgalar mulkini o’g’rilik, talonchilk va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to’g’risida 30.04.1999 yildagi Oliy sud plenum qarori Manba Lex.uz sayti:<https://lex.uz/docs/-1448644>

asosida qurilgan bo'lib, zarur tergov xarakatlari va tezkorqidiruv tadbirlari o'tkazish xususiyati va izchilligini aniqlash bo'yicha muayyan ko'rsatmalarining ishlab chiqilishini taqozo qiladi. Ma'lumki, iqtisodiyot sohasida eng ko'p tarqalgan jinoyatlar o'zganing mulkini talon-taroj qilish: talonchilik, tovlamachilik, o'zlashtirish va rastrata qilish orqali o'zganing mulkini talon-taroj qilish, firibgarlik va o'g'irlik (JK 164-169-moddalar). Odatda, fuqarolar, korxona, muassasa, tashkilot va mansabdor shaxslardan o'zganing mulki talon-taroj qilingani to'g'risida tushgan ariza yoki xabarda, jinoyat ishi materialllarida jinoyat sodir etilish xodisasi bo'yicha ma'lumot bo'lsa-da, aybdor shaxs to'g'risidagi ma'lumot deyarli bo'lmaydi. Shu bois, dastlabki ma'lumotlarning xususiyatini aniqlash tergovchiga jinoyat ishini qo'zg'atish yoki rad etish masalasini to'g'ri hal qilish, yuz bergan voqeа xususiyati, jinoyatni sodir etish va yashirish usullari va uni sodir etgan shaxs to'g'risida asoslangan tusmollarni ilgari surish imkonini beradiki, bu oxir-oqibatdada yuzaga kelgan tergov vaziyatiga to'g'ri baho berish va shu asosda jinoyatni tergov qilish va jinoyatchilarni, shuningdek, jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan mulkni qidirish yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. O'zgalar mulkini talon-taroj qilish (O'zbekiston Respublikasi JKning 164-169-moddalari)ning⁷ kriminalistik tavsifini jinoyatni sodir etish va yashirish usullari, jinoyatni sodir etish

⁶ Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi o'quv qo'llanma. R.R Shakurov .Toshkent 2013. 33-36 betlar

⁷ O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilk va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud

amaliyoti to'g'risida 30.04.1999 yildagi Oliy sud plenum qarori Manba Lex.uz sayti:<https://lex.uz/docs/> vaqtি va joyi, o'zgalar mulkini talon taroj qilish jinoyatini sodir etgan jinoyatchi jabrlanuvchining shaxsi, shuningdek, o'zgalar mulkini talon-taroj qilishga yordam beruvchi sabab va shart-sharoitlar to'g'risidagi ma'lumotlar tashkil qiladi.O'zgalar mulkini talon-taroj qilish

usuli bo'yicha bu kabi jinoyatlar zo'rlik ishlatib sodir etilgan jinoyatlar talonchilik, tovlamachilik, bosqinchilik hamda zo'rlik ishlatmasdan sodir etilgan jinoyatlar o'zlashtirish yoki rastrata yo'li talon-toroj qilish, firibgarlik, o'g'rilik va hokazolarga bo'linadi.⁵ O'zgalar mulkini talon-taroj qilishni sodir etish usuli, shubxasiz, jinoyatchilar tomonidan qoldirilgan izlarning xususiyati va ko'rinishiga tasir qiladi. Masalan, jinoyatchilarining talonchilik, bosqinchilik va o'g'rilikda xona ichiga kirishi oldindan kirish eshiklari, deraza tuynuklarini buzish bilan bog'liq bo'lib, bunda odatda, jinoyat sodir etilish joyida ko'p sonli qo'l, oyoq izlari, buzish qurollari, o'q otar quroollarini ishlatish izlari, turli bo'yoq va modda izlari, sigareta qoldiklari, shaxsiy buyumlar, qon izlari jinoyat sodir etish qurollari qoladi. Talonchilik, tovlamachilik va o'g'rilik sodir etish usullarining umumiy belgilaridan biri o'zganing mulkini talontaroj qilishda yo'naltirilgan zo'ravonlik harakatlarining ochiqdan-ochiq xususiyatga egalidir. Bunda talonchilikda fuqorolarninghayoti yoki sog'lig'i uchun xavfli bo'lgan jismoniy zo'ravonlik qo'llansa, o'g'irlilikda fuqorolarning hayoti yoki sog'lig'iga tajovuz qilinmaydi. Ruhiy zo'ravonlik, aniqrog'i, tazyiq asosan firibgarlikka xos bo'lib, ba'zida ruhiy zo'ravonlikni qo'llash orqali talonchilik va o'g'irlilik jinoyatlarini sodir etish hollari ham uchrab turadi. O'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish orqali talon-taroj qilish usulining o'ziga xos xususiyati aybdorga ishonib topshirilgan yoki uning ixtiyorida bo'lgan o'zganing mulki aybdor tomonidan o'z xizmat funksional majburiyatlarini bajarishi bois qonuniy tarzda uning ish yurituvida bo'ladi. Binobarin, mazkur jinoyatni sodir etishda aybdor mulkka noqonuniy egallagani uchun unga berilgan imkoniyatdan foydalanadi. Odatda, o'zganing mulkini o'zlashtirish yoki rastrata qilish, ayniqsa, u uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan bir martalik yagona hodisa bo'lmaydi. Aksincha, talonchilik ma'lum vaqt oralig'ida rivojlanib, unga jinoiy aloqalarning tarmoqlarga bo'linishi, talon-taroj qilgan mulk miqdorining ortishi, jinoiy faoliyat sohasining kengayishi, shakllarining

⁵ Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi o'quv qo'llanma. R.R Shakurov .Toshkent 2013.
33-36 betlar

takomillashishi xosdir. Talonchilar o'zlarining xizmat vazifalaridan kelib chiqgan xolda zamонавиу aloqa vatransport vositalaridan foydalanishlari mumkin. Mazkur jinoyatlar sodir etilgandan so'ng profilaktika inspektorlari zudlik bilan jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topish choralarini ko'radi. Bu jarayonda tergov, jinoyat qidiruv xizmati, post pastrul xizmati, yo'l harakati xavfsizligi xodimlari, ekspert kriminalistika xizmati xodimlari bilan to'g'ridan to'g'ri hamkorlik qilib, jinoyatni issiq izidan fosh etishni zarur choralarini ko'radi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zgalar mulkini o'g'rilik, talonchilk va bosqinchilik bilan talon-taroj qilish jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida 30.04.1999 yildagi Oliy sud plenum qarori Manba Lex.uz sayti: <https://lex.uz/docs/-14486442>.
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqorolik kodeksi electron manaa Lex.uz sayti <https://lex.uz/docs/-17451206443>.
3. Jinoyat huquqi Maxsus qism darslik M.X.Rustambayev Toshkent 2018.10 bet.
4. Jinoyatlarni tergov qilish metodikasi o'quv qo'llanma. R.R Shakurov .Toshkent 2013. 33-36 betlar